

Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.
 Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 2580,6 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-mart oylarida 10,7 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 914,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 35,4%), qishloq aholisi soni 1666,6 ming kishini (64,6 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-mart


- Aholi soni 10,7 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 13,9 ming nafarni tashkil etdi.
- 2,5 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 4,6 mingta nikoh va 0,4 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

Surxondaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi
 (2019 yil yanvar-mart oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2019 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 377,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 %ni) va Qumqo'rg'on 239,0 ming kishini (9,3 %), Jarqo'rg'on 214,0 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumani 107,2 ming kishi (4,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Denov tumani 2,3 % ni, Qumqo'rg'on 2,4 %ni, va Jarqo'rg'on 2,2%ni, Qiziriq 2,8 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz shahrida 0,8 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (2018-2019 yillar 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

Hududlar	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati	2524,6	2580,6	102,2
Termiz sh.	144,3	145,5	100,8
tumanlar:			
Oltinsoy	168,9	172,9	102,4
Angor	127,2	129,9	102,1
Boysun	115,7	118,1	102,1
Muzrabot	136,1	138,9	102,1
Denov	368,7	377,3	102,3
Jarqo'rgon	209,3	214,0	102,2
Qumqo'rg'on	233,5	239,0	102,4
Qiziriq	165,6	170,3	102,8
Sariosiyo	198,4	202,6	102,1
Termiz	104,5	107,2	102,6
Uzun	167,3	171,1	102,3
Sherobod	185,5	189,6	102,2
Sho'rchi	199,6	204,2	102,3

*) dastlabki ma'lumot

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 377,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 %ni) va Qumqo'rg'on 239,0 ming kishini (9,3 %), Jarqo'rg'on 214,0 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumanida 107,2 ming kishi (4,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Denov tumani 2,3 % ni, Qumqo'rg'on 2,4 %ni, va Jarqo'rg'on 2,2%ni, Qiziriq 2,8 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz shahrida 0,8 %ni tashkil etdi. Qiziriq 2,8 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz shahrida 0,8 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

Hududlar	erkak	ayol
Surxondaryo viloyati	1303,6	1277,0
Termiz sh.	71,4	74,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	88,8	84,1
Angor	64,8	65,1
Boysun	60,4	57,7
Muzrabot	68,8	70,1
Denov	187,4	189,9
Jarqo'rgon	109,7	104,3
Qumqo'rg'on	123,7	115,3
Qiziriq	86,2	84,1
Sariosiyo	101,6	101,0
Termiz	53,9	53,3
Uzun	85,9	85,2
Sherobod	96,2	93,4
Sho'rchi	104,8	99,4

Demografik holat

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 aprel holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)

<i>Hududlar</i>	aholi soni	hudud maydoni (ming kv.km)	aholi zichligi 1kv.km (kishi)
Surxondaryo viloyati:	2580,6	20,1	128,4
Termiz sh.	145,5	0,03	4850,0
<i>hududlar:</i>			
Oltinsoy	172,9	0,57	301,9
Angor	129,9	0,39	332,3
Boysun	118,1	3,58	32,9
Muzrabot	138,9	0,74	186,9
Denov	377,3	1,13	341,1
Jarqo'rg'on	214,0	1,16	183,6
Qumqo'rg'on	239,0	1,94	117,4
Qiziriq	170,3	0,59	286,1
Sariosiyo	202,6	3,83	52,4
Termiz tumani	107,2	0,85	125,5
Uzun	171,1	1,84	94,2
Sherobod	189,6	2,73	69,1
Sho'rchi	204,2	0,72	280,4

Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 13,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,0 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega oshgan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 21,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Termiz shahrida (17,5 promilledan 22,8 promillega), Qiziriq (21,8 promilledan 24,0 promilega), Qumqo'rgon (20,7 promilledan 23,0 promillega), Uzun (19,4 promilledan 20,1 promillega), Sherobod (20,3 promilledan 21,8 promillega), Sariosiyo (20,5 promilledan 21,6 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Surxondaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni (2018-2019 yil yanvar-mart oylari)

Hududlar	2018y	2019y	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan %
Surxondaryo viloyati	13442	13941	103,7
Termiz sh.	620	817	131,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	870	891	102,4
Angor	676	684	101,2
Boysun	626	597	95,4
Muzrabot	756	708	93,7
Denov	2 171	2 121	97,7
Jarqo'rgon	1 224	1 243	101,6
Qumqo'rg'on	1 136	1 353	119,1
Qiziriq	887	1 007	113,5
Sariosiyo	995	1 076	108,1
Termiz	633	561	88,6
Uzun	811	845	104,2
Sherobod	927	1 016	109,6
Sho'rchi	1 110	1 022	92,1


**Hududlar kesimida tug`ilganlar koeffitsiyenti
(2018-2019 yil yanvar-mart)**

Hududlar	2018y	2019y	O'sish sur'ati o'tgan yilga nis- batan +/-
Surxondaryo viloyati	21,6	22,0	0,4
Termiz sh.	17,5	22,8	5,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	20,9	20,9	0,0
Angor	21,6	21,4	-0,2
Boysun	22,0	20,5	-1,5
Muzrabot	22,6	20,7	-1,9
Denov	23,3	22,8	-0,5
Jarqo'rg'on	23,8	23,6	-0,2
Qumqo'rg'on	20,7	23,0	2,3
Qiziriq	21,8	24,0	2,2
Sariosiyo	20,5	21,6	1,1
Termiz	24,6	21,3	-3,3
Uzun	19,4	20,1	0,7
Sherobod	20,3	21,8	1,5
Sho'rchi	22,8	20,3	-2,5

Vafot etganlar

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 2,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,9 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayishi Angor (4,2 promilledan 3,4 promillega), Qumqo'rg'on (4,3 promilledan 3,6 promillega), Muzrabot (4,0 promilledan 3,6 promillega), Sho'rchi (5,3 promilledan 3,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.



Surxondaryo viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (2019 yil yanvar-mart oylaru)


Hududlar	2018y	2019y	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +/-
Surxondaryo viloyati	2566	2501	-65
Termiz sh.	169	178	9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	171	146	-25
Angor	131	108	-23
Boysun	110	91	-19
Muzrabot	134	124	-10
Denov	358	372	14
Jarqo'rg'on	233	235	2
Qumqo'rg'on	235	212	-23
Qiziriq	140	134	-6
Sariosiyo	179	258	79
Termiz	138	124	-14
Uzun	150	141	-9
Sherobod	159	182	23
Sho'rchi	259	196	-63

Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida 2,5 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 63,5 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,1 % i o'simtalardan, 4,6 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan 0,3 % i yuqumli va parazit kasalliklaridan hamda 14,0 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 55,0 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 15,3 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,3 % i tug'ma anomaliyalardan, 1,5 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 9,9 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 11,4 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 10,9 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 10,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
11,4 ming kishi

Demografik holat

Nikoh.2019yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Qumqo'rg'on (73 kishi), Uzun (65 kishi), Sho'rchi (91 kishi), Jarqo'rg'on (28 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti, 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori kamayish sur'atlari Denov(42 kishi),Oltinsoy tumani (17 kishi),Sho'rchi(6 kishi) to'g'ri kelmoqda.



Tuzilgan nikohlar va ajrimlar taqsimlanishi (2018-2019 yil yanvar-mart , o'sish o'tgan yilga nisbatan)



Hududlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)
Surxondaryo viloyati	4 434	4 584	150	500	419	-81
Termiz sh. tumanlar:	244	224	-20	45	37	-17
Oltinsoy	216	240	24	34	17	-17
Angor	216	217	1	18	21	3
Boysun	149	174	25	21	19	-2
Muzrabot	242	242	0	22	20	-2
Denov	731	631	-100	108	66	-42
Jarqo'rg'on	416	444	28	37	42	5
Qumqo'rg'on	348	421	73	23	25	2
Qiziriq	313	278	-35	31	29	-2
Sariosiyo	467	472	5	40	35	-5
Termiz	163	191	28	21	23	2
Uzun	290	355	65	40	38	-2
Sherobod	324	289	-35	29	22	-7
Sho'rchi	315	406	91	31	25	-6

Demografik holat

Migratsiya. 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,6 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 3,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi) (2018-2019 yil yanvar-mart)

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Denov tumanida (minus 0,1 ming kishi), Jarqo'rgon (minus 0,1 ming kishi), Termiz sh (minus 0,2 ming kishi), Sariosiyo (minus 0,2 ming kishi), qayd etildi.

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	4,0	2,6
Ko'chib ketganlar	4,5	3,3
Migratsiya saldosini	-0,5	-0,7

